

2020

THE ROLE OF SMALL BUSINESS WITHIN THE NATIONAL ECONOMY

Zokir Sodiqov

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN, PhD, docent, head of the Department of The Islamic economy, fnance and pilgrimage tourism, zokirsodiqov1@gmail.com

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/iiau>



Part of the [Business Analytics Commons](#)

Recommended Citation

Sodiqov, Zokir (2020) "THE ROLE OF SMALL BUSINESS WITHIN THE NATIONAL ECONOMY," *The Light of Islam*: Vol. 2020 : Iss. 4 , Article 18.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss4/18>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in The Light of Islam by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

DOI: 10.47980/TLOI/2020/4/17

MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNING ROLI

РОЛЬ МАЛОГО БИЗНЕСА В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

THE ROLE OF SMALL BUSINESS WITHIN THE NATIONAL ECONOMY

Zokir RUSTAMOVICH SODIKOV,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN,
PhD, docent, head of the Department of The Islamic

economy,
finance and pilgrimage tourism,

z.sodikov@iiau.uz

11, A.Kadiri, Tashkent, 100011. Uzbekistan

Annotatsiya: Bu maqolada kichik biznesning milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga, ishlab chiqarishning kengayishiga, tovar va xizmatlar sifati yaxshilanishiga, bandlik darajasining oshishiga, eksport salohiyatini kuchaytirishga, importni samarali tashkil etishga ta'sirlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, bu borada mamlakatimizda yaratilgan shart-sharoitlar va erishilayotgan natijalarning asoslari tahlil qilingan. Bundan tashqari, kelajakda qilinishi talab etiladigan vazifalar va takomillashtirish yo'nalishlari tavsiya berilgan. Mamlakatimizda zamonaviy ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor jihatlaridan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kuchaytirishdan iborat. Iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda va kichik biznesning rolini oshirish maqsadida tizim barpo qilindi. Tadbirkorlik faoliyatini kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy asoslar va tadbirkorlarga ko'maklashuvchi tuzilmalar shakllantirildi. Kichik biznes subyektlari yirik kapitallsiz yangi ish joylarini tashkil etish va ayrim tovarlar taqchilligini kamaytirish, hatto, ularni to'liq ta'minlash imkoniyatiga ega.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlashda va aholi farovonligini oshirishda ustuvor ahamiyat kasb etayotgan kichik biznesning rolini mamlakatimiz shart-sharoitlaridan va imkoniyatlaridan kelib chiqib muntazam ravishda tahlil qilib, ular borasida istiqbolli xulosalarni o'rta tashlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ayni paytda jadal amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning jamiyatdagi natijasini asoslash va yanada takomillashtirish uchun milliy iqtisodiyotning barcha bo'g'inlari qatori kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish jarayonini muntazam o'rganish talab etiladi. Aynan mazkur maqola ana shu maqsadlarga qaratilgan vazifalarning bajarilishi hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda kichik va o'rta biznesni rivojlanishi, xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ishlab chiqarishni

jadallashtiradi hamda iste'mol bozori tovarlar bilan barqaror ta'minlanadi. Natijada mamlakatda aholining bandlik darajasi ortadi va mavjud ishchi kuchining qiymay yaratish imkoniyati vujudga keladi. Mazkur jarayon milliy daromadni ko'paytiradi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning o'sishiga olib keladi. Ushbu tendensiya ta'sirida milliy iqtisodiyot rivojlanadi, aholining turmush farovonligi yaxshilanadi va xalqaro miqyosda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy qudrati hamda siyosiy mavqeyi mustahkamlanadi. Shu bois bugungi kunda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni muttasil rivojlantirish, sohada faoliyat olib borayotganlarni muntazam ravishda moliyaviy rag'batlantirish va tashkiliy-huquqiy jihatdan imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida soha bilan bog'liq jarayonlarni izchil tadqiq qilish va uni yanada rivojlantirish borasida ilmiy takliflar berish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tayanch iboralar: *kichik biznes, iqtisodiyot, islohot, milliy iqtisodiyot, liberallashtirish, ishlab chiqarish, eksport, import, tashqi savo, investitsiya, xususiy tadbirkorlik, diversifikatsiya qilish.*

Аннотация: В данной статье показано влияние малого бизнеса на развитие национальной экономики, расширение производства, повышение качества товаров и услуг, повышение занятости, укрепление экспортного потенциала, эффективную организацию импорта. В связи с этим были проанализированы условия, созданные в нашей стране, и итоги достигнутых результатов. Рассмотрены задачи и основные направления совершенствования деятельности малого бизнеса. Одним из приоритетов в развитии современной социально-ориентированной рыночной экономики в нашей стране является укрепление малого бизнеса и частного предпринимательства. В стране проводятся экономические реформы, и созданы условия для повышения роли малого бизнеса. Сформирована нормативно-правовая база, гарантирующая предпринимательскую деятельность, и структуры по оказанию помощи предпринимателям. Малые предприятия имеют возможность создавать новые рабочие места без большого капитала и сокращать нехватку определенных товаров или даже самостоятельно предоставлять их в полном объеме.

В настоящее время является актуальным изучение роли малого бизнеса, который играет ключевую роль в укреплении производственного потенциала национальной экономики и повышении благосостояния населения, а также осуществление подробного анализа и прогнозов развития малого бизнеса с учетом условий и возможностей страны. Вместе с тем необходим постоянный мониторинг процесса развития всех секторов национальной экономики, в том числе малого бизнеса и частного предпринимательства в целях обоснования и разработки предложений по совершенствованию социально-экономических реформ в обществе. В статье изложены предложения по решению этих задач.

Развитие малого и среднего бизнеса в национальной экономике, поддержка частной и предпринимательской деятельности позволит ускорить производство и обеспе-

чить стабильные поставки товаров на потребительский рынок. В результате уровень занятости в стране повысится, а существующая рабочая сила получит возможность создавать стоимость. Этот процесс увеличит национальный доход и приведет к увеличению дохода на душу населения. В результате национальная экономика будет развиваться, благосостояние населения повысится, а социально-экономическая мощь и политическое положение государства на международном уровне укрепятся.

Ключевые слова: *малый бизнес, экономика, реформа, национальная экономика, либерализация, производство, экспорт, импорт, внешняя торговля, инвестиции, частное предпринимательство, диверсификация.*

Abstract: The article considers the impact of small business on the development of the national economy, expansion of production, improving the quality of goods and services, increasing employment, strengthening export potential, and efficient organization of imports. In this regard, the analysis of the conditions created in our country, and the basis of the achieved results were done. Also, future challenges and areas for improvement were identified. One of the priorities in the development of a modern socially-oriented market economy in our country is to strengthen small business and private entrepreneurship. Economic reforms are underway and a system has been set up to enhance the role of small business. The legal and regulatory framework guaranteeing entrepreneurial activity and structures to assist entrepreneurs have been formed. Small businesses have the opportunity to create new jobs without large capital and to reduce the shortage of certain goods, or even to provide them in full.

Nowadays, it is important to analyze regularly the role of small business, which plays a key role in strengthening the productive capacity of the national economy and improving the welfare of the population, based on the conditions and opportunities of our country and draw perspective conclusions about them. At the same time, to substantiate and further improve the results of the ongoing socio-economic reforms in society, it is necessary to study the development of small business and private entrepreneurship, as well as all sectors of the national economy. This article is the fulfillment of the tasks aimed at achieving these goals.

The development of small and medium-sized businesses in the national economy, support for private and entrepreneurial activities will speed up production and ensure a stable supply of goods to the consumer market. As a result, the employment rate in the country will rise and the existing labor force will be able to create value. This process will increase national income and lead to an increase in per capita income. As a result, the national economy will develop, the well-being of the population will increase, and the socio-economic power and political position of the state at the international level will strengthen.

Keywords: *small business, economy, reform, national economy, liberalization, production, export, import, foreign trade, investment, private entrepreneurship, diversification.*

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi: Xalqaro hamjamiyatda globallashtirish jarayoni chuqurlashtirib borayotgan davrda milliy iqtisodiyotning jahon talablari asosida rivojlanishi va ulardagi tajribalarni o'zlashtirishi amaliy ahamiyatga ega faoliyat hisoblanadi. Aynan shu nuqtayi-nazardan kelib chiqiladigan bo'lsa, bu mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning taraqqiy etgan davlatlar iqtisodiyotidagi kabi yetakchi va faol harakatlantiruvchi salohiyatga chiqarish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizda jadal ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun milliy iqtisodiyotni har tomonlama liberallashtirish va unda faoliyat olib borayotgan kompaniyalarning hajmiga binoan samaradorligini oshirish ustuvor hisoblanadi. Xususan, bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni muttasil faollashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Chunki, milliy ishlab chiqarishni jadal va kam sarmoya bilan modernizatsiya qilish, yangi turdagi tovarlarni va texnologiyalarni o'zlashtirish, eksportga chiqarilayotgan tovarlar tarkibini diversifikatsiya qilish, bandlik darajasini mustahkamlash va bozorlardagi yangiliklarga tez moslashish kabi jihatlar kichik biznesga xos xususiyat hisoblanadi.

Aynan ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar va ularning tashkiliy-huquqiy hamda moliyaviy jihatlardan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ta'sirlari tahliliy asosda tadqiq qilingan. Shu bois Davlat tomonidan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga va yangi ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirishga, mamlakatimizda bandlikni oshirishga va ishsizlikni bartaraf qilish orqali aholi farovonligini yuksaltirishga hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni mustahkamlashga muhim ustuvor vazifa sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, milliy iqtisodiyotning globallashtirish jarayoni chuqurlashtirayotgan bosqichda xalqaro bozorlardagi mavqeyini mustahkamlash tendensiyasini mustahkamlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli kuchaytirish hamda istiqbolli ahamiyatini ta'minlash masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan bozor iqtisodiyotiga asoslangan, uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishish va global iqtisodiy tizimdan munosib o'rin egallash uchun chuqur o'zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, liberallashtirish va tarkibiy takomillashtirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni modernizatsiya qilish jarayonlari barqaror va muttasil ravishda amalga oshirilib kelinmoqda.

Shu bois, milliy iqtisodiyotni yanada modernizatsiyalash, ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy texnologiyalar joriy etish bilan bir qatorda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushini qiymat yaratishda muttasil oshirib borish iqtisodiy yutuqlarga zamin yaratadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida “milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta‘minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish, ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta‘minlash” ustuvor va muhim vazifasi sifatida belgilangan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, 2017: 26).

Muammoning qo‘yilishi: Bugungi kunda milliy iqtisodiyotni muntazam rivojlantirish va liberallashtirish makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga, izchil yuqori iqtisodiy o‘shirish sur‘atini ta‘minlashga, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining raqobat salohiyatini oshirishga, yangi sohalarni jadal rivojlantirishga, xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashga erishish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosiy muammo hisoblanadi. Shu bois mazkur vaziyat milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyatini oshirib borish borasida tadqiqot qilishning mohiyatini belgilab beradi.

Tadqiqot maqsadi: Jahon xo‘jaligida globallashtirish jarayoni chuqurlashib, davlatlararo ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy raqobat avj olib borayotgan bugungi kunda milliy iqtisodiyotni uzluksiz rivojlantirish va bozor munosabatlarini muntazam kuchaytirish davrida barqaror iqtisodiy o‘shirishni ta‘minlashga erishish va unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining salohiyatidan unumli foydalanish yo‘llarini zamonaviy shart-sharoitlarga muvofiq takomillashtirish borasida ilmiy xulosa va takliflarni bildirishdan iborat.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini avj oldirish sharoitida iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi va mavjud resurslardan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini taraqqiyotiga tayanadi. Shuning uchun mamlakatda biznes faoliyatining rivojlanishi va istiqboli bozor mexanizmi sharoitida o‘ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi (Tuxliev N., 2018: 187).

Tadqiqot metodlari. Ilmiy mavhumlik (abstraksiya), taqqoslama tahlil, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, sintez, jadval tahlili, statistik tahlil va boshqa metodlardan foydalanildi.

Asosiy natijalar. Bugungi kunda barqaror va samarali iqtisodiyotni barpo mamlakatlar uchun qonuniyatga aylangan. Ayniqsa, global iqtisodiy

tizimda sodir bo‘layotgan shiddatli ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot davr bilan hamqadam va hamnafas bo‘lish uchun mamlakatlarni faol harakatlanishga majbur qilmoqda. Mazkur vaziyat bozor iqtisodiyoti sharoitidagi raqobatning mahsuli va muammosi hisoblanadi. Zero umumiy qonuniyatga binoan muvaffaqiyatning qo‘lga kiritilishi muayyan zahmatni va fidoiyligni taqozo qilishi tabiiydir.

Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish yo‘llaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining taraqqiyoti hisoblanadi. Shu bois tadbirkorlikni rivojlanishi bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘ziga xos xususiyatlarni va imkoniyatlar ta‘minlab berilishini talab etadi. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlikni vujudga kelishi jamiyatdagi ijtimoiy- iqtisodiy, moddiy-moliyaviy, huquqiy-me‘yoriy, tashkiliy-institutsional va boshqa shu kabi shart-sharoitlarga asoslanadi. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish, bozordagi talab va taklif jarayoni, iste‘molchilar uchun tovar va xizmatlarning xilma-xil turlarining mavjudligi, moliyaviy imkoniyatlar, xomashyo va ishchi kuchi kabi omillar belgilab beradi.

Har qanday davlatda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi ijtimoiy –madaniy shart-sharoitlar bilan uzviy bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Chunki biznes jarayonlarining izchilligi iste‘molchilarning didi va zamonaviy tovarlarni sotib olishga moyilligi bilan bir qatorda ularning xarid qobiliyatiga ham bog‘liq bo‘ladi. Albatta, amaliy hayotda muntazam ravishda va turli bosqichlarda kishilarning talab tendentsiyasi o‘zgarib boradi. Bunga kishilarning ijtimoiy-madaniy turmush tarzi va muhit, dunyo qarashlari va kasbining rivojlanish xususiyatlari, daromadlarining o‘shirish borishi va boshqalar jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ishbilarmon va tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini muttasil oshirib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlik muhitini belgilashda iqtisodiy omillar bozordagi erkin raqobatda va narx-navo holatida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiyotda narxlar va ularning darajasi o‘zida ishlab chiqarish omillari xarajatlarini, foiz stavkasini, soliq va majburiy to‘lovlarni aks ettirishi tabiiy. Biznesmenlar faoliyatining kelajagi uni amalga oshirish uchun yaratilgan muhit bilan belgilanadi va u jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni namoyon qiladi. Bozor munosabatlari rivojlangan davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni biznesmenlarning iqtisodiy mustaqilligi, tadbirkorlar qatlamining mavjudligi, iqtisodiy munosabatlar jarayonlarida bozorning roli, tashabbuskorlarning foyda olish imkoniyati va milliy

xo'jalikda rag'batlantiruvchi universal qulayliklarning yaratilgani belgilab beradi.

Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor vazifasi barqaror iqtisodiy o'sish bilan birga ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va bandlik darajasini oshirish, milliy boylikni ko'paytirish va aholi farovonligini yuksaltirish kabilardan iborat. Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy faollik va mustaqillikning asosiy ko'rinishi hisoblangan tadbirkorlik bandlikni oshirish va yangi ish joylarini barpo qilish orqali jamiyat uchun alohida o'rin tutadi.

Tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining asosi bo'lib, u tadbirkorlar faoliyatining mazmunini va istiqbolini belgilab beradi. Jahondagi mamlakatlarda tadbirkorlik shart-sharoitlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Har qanday mamlakatda iqtisodiy jarayonlarning samarali tashkil etilishi jamiyatning moddiy va ma'naviy imkoniyatlarining yuksalishiga zamin yaratadi. Jahon amaliyotida iqtisodiyotning rivojlanishida mamlakatda tadbirkorlik uchun yaratilgan qulayliklar asos ekanligi yaqqol isbotlangan voqelik hisoblanadi.

Shu bois tadbirkorlik faoliyatini va bu borada jahon tajribasini zamonaviy uslublar asosida tadqiq qilish hamda taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotini bilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Iqtisodiyotda tadbirkorlik muhiti asosan ijtimoiy-siyosiy, huquqiy-tashkiliy, moddiy va moliyaviy shart-sharoitlarning mujassamlashuvi asosida kelib chiqadi (Sodikov Z.R., 2019: 115).

Bularning rag'batlantiruvchi shaklda yuzaga chiqishi mamlakatda yoki uning muayyan mintaqasida tadbirkorlik faoliyatini olib borishni jadallashtiradi. Zero, bunday muhit ishbilarmonlar va biznesmenlarga o'z faoliyatining ijobiy natijalarini oldindan ko'ra olishiga katta imkoniyatlar ta'minlab beradi. Mamlakatlarda siyosiy omil tadbirkorlik faoliyatiga davlatning munosabatini va jarayonga ta'sirini aks ettiradi.

Umuman tadbirkorlik jarayonida bozor mexanizmi sharoitida davlatning roli qo'llab-quvvatlovchi yoki aralashmaslik shaklida namoyon bo'ladi. Mamlakatda tadbirkorlikning rivojlanishida siyosiy tizimning barqarorligi katta ahamiyatga ega hisoblanib, tashabbuskorning o'z faoliyatini strategik jihatdan rivojlantirishiga va uzoq muddatga mo'ljallangan istiqbolli loyihalarni amalga oshirishiga imkoniyatlar yaratib beradi.

Mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlar bois faqat mahalliy tadbirkorlar emas, ayni paytda, yirik xorijlik investorlar va chet ellik biznesmenlar faoliyati ham iqtisodiyotimizda hozirgi kunda jadal rivojlanib bormoqda. O'z navbatida biznes muhitini belgilashda jamiyatdagi ijtimoiy omillar va vaziyatlarning o'ziga

xos murakkabligi ta'sir ko'rsatadi. Chunki, u ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy unsurlardan tashkil topadi va ishbilarmon kishilar ularni ko'zda tutib faoliyat olib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bular, jamiyatda yuritilayotgan siyosatlar, ijtimoiy-madaniy turmush ko'nikmalaridan, aholining tadbirkorlik faoliyatiga munosabatlaridan va boshqa unsurlardan tashkil topadi. Ayni paytda, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar singari tadbirkorlik faoliyati ham muayyan huquqiy mezonlar doirasida amalga oshirilishi tabiiy hisoblanadi. Shu bois barcha milliy iqtisodiyotlarda huquqiy asoslarni ishlab chiqish va amaliyotga keng joriy etish har qanday soha kabi katta ahamiyatga egadir.

Ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatini maqbul tarzda rivojlantirishga qaratilgan qulay sharoit yaratib beruvchi qonunlarning ishlab chiqilishi, firmalarni rasmiylashtirish jarayonining qisqa va sodda bo'lishi, burokratik to'siqlar bartaraf qilinishi, soliq qonunchiligining maqbullashtirilishi va muvofiqlashtirilishi, mahalliy va xorijlik biznesmenlarning o'zaro hamkorligini qo'llab-quvvatlovchi qulayliklar me'yor va mezonlarni belgilovchi hujjatlarda aks etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakatimizda amaliyotda joriy etilgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning asosi bo'layotgan huquqiy bazani muttasil ravishda bugungi kundagi islohotlarga monand ravishda takomillashtirish talab etiladi. O'z navbatida tadbirkorlik muhitini belgilashda iqtisodiy omillar bozordagi erkin raqobatda va narx holatida ko'rinadi. Iqtisodiyotda narxlar va ularning darajasi o'zida ishlab chiqarish omillari xarajatlarini, foiz stavkasini, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni aks ettiradi.

Tadbirkorlik faoliyatining kelajagi uni amalga oshirish uchun yaratilgan muhit bilan belgilanadi va u jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni namoyon qiladi. Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni iqtisodiy mustaqillik, tadbirkorlar qatlami, iqtisodiy munosabatlar jarayonida bozorning roli, foyda olish imkoniyatlarining mavjudligi va biznes faoliyatini rag'batlantiruvchi universal qulayliklarning ta'minlab berilganligi ko'rsatadi.

Milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni jadvalda keltirilgan bo'lib, unda YIM ning 2000 yilda 31%, 2010 yilda esa 52,5% va nihoyat 2018 yilda 59,4% ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan bo'lsa, bandlikdagi ulushi 2000 yilda 49,7, 2010 yilda 74,3% va 2018 yilda 76,3%ga teng bo'lmoqda. Umuman, jarayonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rni muntazam ravishda ortib borayotganini jadvalda keltirilgan tarmoq va sohalar bo'yicha tendensiya yaqqol namoyon qilmoqda.

1-jadval.

Iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ri (%)

| Yil | YIM | Sanoat | Qurilish | Bandlik | Eksport | Import |
|------|--------|--------|----------|---------|---------|--------|
| 2000 | 31,0* | 12,9* | 38,4* | 49,7* | 10,2 | 22,8 |
| 2001 | 33,8* | 12,5* | 40,4* | 51,8* | 9,3 | 26,7 |
| 2002 | 34,6* | 15,4* | 42,0* | 53,5* | 7,5 | 24,9 |
| 2003 | 35,0 | 10,8 | 39,9 | 56,7 | 7,3 | 33,7 |
| 2004 | 35,6 | 11,0 | 49,6 | 60,3 | 7,3 | 32,7 |
| 2005 | 38,2 | 10,0 | 50,9 | 64,8 | 6,0 | 33,7 |
| 2006 | 42,1 | 10,9 | 52,1 | 69,1 | 11,2 | 34,2 |
| 2007 | 45,7 | 13,2 | 55,4 | 72,1 | 14,8 | 32,0 |
| 2008 | 48,2 | 14,6 | 58,4 | 73,1 | 12,4 | 35,7 |
| 2009 | 50,1 | 17,9 | 42,4 | 73,9 | 14,6 | 42,5 |
| 2010 | 52,5 | 26,6 | 52,5 | 74,3 | 13,7 | 35,8 |
| 2011 | 54,0 | 28,6 | 67,6 | 75,1 | 18,8 | 34,3 |
| 2012 | 54,6 | 29,7 | 70,0 | 75,6 | 14,0 | 38,6 |
| 2013 | 55,8 | 33,0 | 70,6 | 76,7 | 26,2 | 42,4 |
| 2014 | 56,1 | 36,8 | 69,5 | 77,6 | 27,0 | 45,4 |
| 2015 | 62,9** | 40,6 | 66,7 | 77,9 | 27,0 | 44,5 |
| 2016 | 64,9** | 45,3 | 66,9 | 78,2 | 26,0 | 46,8 |
| 2017 | 63,6** | 41,2 | 64,8 | 78,0 | 22,0 | 53,6 |
| 2018 | 59,4** | 37,4 | 73,2 | 76,3 | 27,2 | 56,2 |

*) 2000-2002 yillar kichik va o'rtacha biznes

**) 2015-2018 yillar uchun ma'lumotlar aniqlik kiritilgan (qayta baholab chiqilgan) ma'lumotlarni hisobga olgan holda keltirilgan

Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirishning eng ustuvor vazifasi barqaror iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy muammolarni o'z vaqtida bartaraf qilish, bandlik darajasini oshirish, milliy boylikni ko'paytirish va aholi farovonligini muttasil ravishda yuksaltirish hamda yanada mustahkamlashdan iborat. Iqtisodiyotda biznes faollik va mustaqillikning asosiy ko'rinishi hisoblangan tashabbuskorlik ish bilan bandlikni oshirish va yangi ish joylarini barpo etish borasidagi faoliyati bilan muhim ahamiyat kasb etadi (Gulyamova G., 2019: 756).

Zero, bozor mexanizmiga asoslangan iqtisodiy tizimlarda tadbirkorlik muhiti mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosi bo'lib, u biznesmenlar faoliyatining mazmunini belgilab beradi. Jahondagi aksariyat mamlakatlarda tadbirkorlik muhiti va biznes iqlimi bir-biridan farq qiladi.

Mamlakatda iqtisodiy jarayonlarning unumli tashkil etilishi jamiyatning moddiy va ma'naviy imkoniyatlarining yuksalishiga zamin hozirlaydi. Jahon amaliyotida ham ko'plab milliy iqtisodiyotning rivojlanishida jamiyatda ishbilarmonlik uchun ta'minlab berilgan qulayliklar asos ekanligi tasdiqlangan. Shulardan kelib chiqqan holda jamiyatda erkin tadbirkorlik uchun iqtisodiy va huquqiy shart-sharoit yaratish zarur hisoblanadi. Shuningdek, kichik biznes va

xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish talab etiladi (Sodikov Z.R., 2019: 113).

Ayniqsa, ularning xomashyo va mehnat resurslaridan foydalanishlariga keng sharoit yaratish bilan bir qatorda, ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining mahalliy va xorijiy bozorlarga taklif qilishiga hamda davomiyligini kafolatlovchi tizimni barpo qilishga ustovorlik qaratish lozim. Tadbirkorlik muhitini tahlil qilish jarayonida ishbilarmonlarning iste'molchilarning milliy-madaniy hayoti va qadriyatlarini, ijtimoiy turmush tarzi va an'analarini, kishilarning xarid qobiliyatini bilishi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Demak, iqtisodiyotning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kesimida ishlab chiqarilgan sanoat tovarlari hajmi 2000 yilda 244 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yil 10 trln. so'mdan ortiq, 2015 yilda 39 trln. so'mdan ortiq va nihoyat 2018 yilda 87 trln. so'mdan ortiqni tashkil etgan. Aynan milliy iqtisodiyotning tarmoqlari, bandligi va tashqi savdosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati keltirilgan 2-jadvalda yaqqol aks etgan. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksporti 2000 yilda 334,3 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010 yilda 1782,8 mln. AQSh dollariga va nihoyat 2018 yilda 3810,8 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan yoki muntazam o'sish tendensiyasi sodir bo'lmoqda.

2-jadval.

Iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli (stat.uz, 2019:)

| Yillar | Sanoat (mlrd. so'm) | Qurilish (mlrd. so'm) | Bandlik (ming kishi) | Eksport (mln. AQSh. Dol) | Import (mln. AQSh. Dol) | Savdo (mlrd. so'm) |
|--------|---------------------|-----------------------|----------------------|--------------------------|-------------------------|--------------------|
| 2000 | 244,0 | 149,0 | 4467,1 | 334,3 | 672,1 | 760,3 |
| 2001 | 355,1 | 230,4 | 4733,0 | 293,6 | 836,2 | 1148,5 |
| 2002 | 690,6 | 306,9 | 4994,1 | 224,3 | 675,7 | 1500,8 |
| 2003 | 659,6 | 331,9 | 5436,7 | 272,1 | 998,0 | 1818,5 |
| 2004 | 892,1 | 556,6 | 5974,9 | 354,4 | 1249,3 | 4237,9 |
| 2005 | 1104,8 | 739,2 | 6602,5 | 325,8 | 1379,9 | 4918,9 |
| 2006 | 1589,3 | 1009,8 | 7234,1 | 714,6 | 1633,5 | 6638,2 |
| 2007 | 2432,4 | 1514,2 | 7743,1 | 1333,5 | 2155,0 | 8410,8 |
| 2008 | 3489,5 | 2090,0 | 8071,1 | 1419,8 | 3460,4 | 10724,2 |
| 2009 | 5072,3 | 2996,0 | 8370,1 | 1723,6 | 4011,2 | 13672,9 |
| 2010 | 10132,9 | 4163,2 | 8643,9 | 1782,8 | 3287,9 | 18616,1 |
| 2011 | 13586,8 | 6188,3 | 8950,7 | 2826,2 | 3895,5 | 24741,9 |
| 2012 | 17114,6 | 7925,5 | 9239,7 | 1910,5 | 4946,0 | 32242,9 |
| 2013 | 23312,0 | 10377,7 | 9604,0 | 3752,3 | 5909,4 | 40564,5 |
| 2014 | 30907,0 | 13944,9 | 9950,8 | 3657,8 | 6352,6 | 50197,8 |
| 2015 | 39643,5 | 16954,0 | 10170,4 | 3377,7 | 5523,1 | 61972,3 |
| 2016 | 50654,5 | 19671,0 | 10397,5 | 3139,2 | 5676,8 | 78935,6 |
| 2017 | 61367,8 | 22469,4 | 10541,5 | 2759,3 | 7511,9 | 92973,0 |
| 2018 | 87962,0 | 37451,7 | 10128,8 | 3810,8 | 10916,2 | 114896,4 |

Bu sohaning nisbiy ulushi bilan birga real qiymati va ishlab chiqarish hajmi iqtisodiyotda muntazam

ortib borayotganligini isbotlaydi. Shuningdek, bu tendensiyani 2 - jadvalda keltirilgan statistik ma'lumotlarga binoan qurilish, bandlik, eksport, import va savdo sohalorida ham kuzatish mumkin. Biznesmenlar bularni har tomonlama va chuqur tahlil qilayotganda bu mahsulotlarni kelajakda eksport qilish maqsadida qo'shni mamlakatlar bozorlarini ham ko'zda tutish foydadan xoli bo'lmaydi. Shu bois, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan har bir ishbilarmon kishi o'zini o'rab turgan muhitni ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini chuqur anglashi va ular haqida tadqiqotlar olib borishi muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda iqtisodiyotda keng ko'lamli bozor islohotlarini amalga oshirish jarayonida ishbilarmonlar doirasi kengayib borayotganligi ma'lum. Milliy xo'jalikda hozirda o'tkazilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va ustuvor yo'nalishi mamlakatda haqiqiy mulkdorlar qatlamini shakllantirishga qaratilgan. Davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan huquqiy asoslar va mezonlar ana shu maqsadga yo'naltirilgan. Chunki bu masalalarni bartaraf qilmasdan, ko'zda kutilgan natijalarga va yangiliklarga erishib bo'lmaydi.

Iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ayrim tarmoq va yo'nalishlar borasidagi roli ushbu jadvalda 2000-2018 yillar bo'yicha keltirilgan. Hozirgi kunda iqtisodiy islohotlar va o'zgarishlarning muhim jihatlardan biri ishlab chiqarish sohasida xususiy tadbirkorlikni va uning tuzilmalarini aniq qo'llab-quvvatlash orqali zamon talablariga monand mulkdorlar qatlamini shakllantirishdan iborat.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulot, sanoat tovarlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va boshqa faoliyatlarning aksariyat qismi xususiy sektor tomonidan amalga oshirilmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tomonidan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2000 yilda 1 trln.so'mdan ortiq mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2010 yilda 31 trln. so'mdan ortiq, 2015 yilda 101 trln so'mdan ortiq va nihoyat 2018 yilda 191 trln. so'mdan ortiq mahsulot ishlab chiqarilgan hamda jarayon muntazam o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ushbu tendensiyani 3-jadvalda keltirilgan tarmoqlar va yo'nalishlarning barchasida kuzatish mumkin. Ayniqsa, bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda ishlab chiqilayotgan dasturlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish joylarini yaratish va bandlikni oshirish, aholining daromadlari va farovonligini yuksaltirishda alohida ahamiyat kasb etib kelayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni muttasil rivojlantirishga va qo'llab-quvvatlashga ustuvor vazifasi sifatida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Kichik biznes va tadbirkorlikning sohalardagi ahamiyati

| Yillar | Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd.so'm) | Xizmatlar (mlrd. so'm) | Yuk tashish (mln. tonna) | Yuk aylanmasi (mln.tonna-km) | Yo'lovchi tashish (mln. yo'lovchi) | Yo'lovchi aylanmasi (mln.pass. km) |
|--------|--|------------------------|--------------------------|------------------------------|------------------------------------|------------------------------------|
| 2000 | 1021,0 | x | 46,8 | 2304,3 | 972,9 | 10181,9 |
| 2001 | 1568,6 | x | 54,7 | 2708,5 | 1083,8 | 11963,0 |
| 2002 | 2439,6 | x | 75,5 | 3338,1 | 1231,9 | 14053,0 |
| 2003 | 3196,9 | x | 87,4 | 4419,7 | 1507,0 | 18410,7 |
| 2004 | 3669,4 | x | 118,6 | 5935,8 | 1895,0 | 23368,6 |
| 2005 | 5019,7 | x | 156,8 | 8249,9 | 2490,4 | 29971,5 |
| 2006 | 7089,8 | x | 187,3 | 10393,0 | 2803,0 | 33902,0 |
| 2007 | 9078,2 | 6202,7 | 258,7 | 12782,0 | 3412,3 | 41019,4 |
| 2008 | 11052,1 | 8534,7 | 315,3 | 15700,9 | 4017,8 | 47252,6 |
| 2009 | 13328,1 | 11182,1 | 379,2 | 16945,8 | 4358,8 | 51472,0 |
| 2010 | 31900,4 | 15214,1 | 255,2 | 6084,5 | 3084,5 | 67874,1 |
| 2011 | 46704,5 | 19556,5 | 292,0 | 6894,3 | 3416,2 | 74320,7 |
| 2012 | 56926,6 | 24841,8 | 304,3 | 7271,9 | 3687,9 | 80210,0 |
| 2013 | 67510,7 | 31409,1 | 352,8 | 7919,1 | 3953,8 | 86183,3 |
| 2014 | 82957,2 | 40187,9 | 416,1 | 8632,9 | 4224,5 | 93024,7 |
| 2015 | 101197,5 | 47269,6 | 472,8 | 9225,1 | 4486,3 | 99872,8 |
| 2016 | 118011,4 | 61346,2 | 538,6 | 10072,4 | 4866,5 | 107789,7 |
| 2017 | 152010,5 | 69212,7 | 548,8 | 10444,4 | 5037,5 | 111435,0 |
| 2018 | 191767,5 | 84433,4 | 611,7 | 11657,7 | 5242,6 | 115335,2 |

*) 2010 yildan ma'lumotlar aniqlashirilgan

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi, bandlikdagi, yetakchi tarmoqlardagi, eksport-importdagi va boshqa sohalardagi roli oxirgi yillarda keskin ortib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorida erishilgan bu natijalar davlat tomonidan ularni muntazam ravishda qo'llab-quvvatlanayotganligining samarasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning shiddat bilan jadal rivojlanishida iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlardan tashqari ular uchun yaratilayotgan soliq to'lash jarayonidagi, moliyaviy masalalardagi va boshqa yo'nalishlardagi imtiyozlar ham ahamiyat kasb etmoqda hamda ularni rag'batlantirmoqda. Shu bois bu bo'g'in subyektlarini rag'batlantirish faqat soliq stavkasini pasaytirish va imtiyozlar berishda emas, balki ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda ham namoyon bo'ladi. Qolaversa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyotimizda barqaror rivojlanishida unga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalarining tashkil etilishi va samarali xizmat ko'rsatishini yo'lga qo'yilishi ham sezilarli darajada zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma muassasalari turi o'ndan ortiq bo'lib, ular ishbilarmonlar uchun bozorning zaruriy shart-sharoitlarini yaratib berish borasida xizmat ko'rsatmoqda. Natijada davlatimizda kichik

biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining yangi ish joylarini yaratish va aholining daromadlarini oshirish orqali turmush farovonligini kuchaytirishdagi roli muntazam ortib bormoqda. Demak, jahondagi vaziyatda ham mamlakatimizda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining daromadlarini oshirishning muhim omili sifatida o'z kuchini mustahkamlab bormoqda.

Zamonaviy ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ahamiyatli darajada taraqqiy ettirishdan iborat ekanligi ma'lum. Shu bois bu borada islohotlar va o'zgarishlar olib borilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kuchaytirish maqsadida yirik institutsional tizim barpo qilingan. Shuningdek, biznes faoliyatini kafolatlovchi qonuniy asoslar va tadbirkorlarga ko'maklashuvchi nodavlat tuzilmalar shakllantirilib kelinmoqda. Shu bois O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi majmuini barpo qilish muvaffaqiyatli tarzda rivojlanib bormoqda. Kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar katta hajmdagi moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezmasdan o'zlari yangi ish joylarini tashkil etishlari va ayrim tovarlar taqchilligini kamaytirishlari, hatto, ularni bartaraf qilishi ularning yutuqlarini isbotlovchi omillardan hisoblanadi.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotimizning barcha sohalarida, jumladan, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda, iste'mol tovarlari tayyorlashda va boshqa sohalarda jadal faoliyat olib bormoqda. Hozirda kichik korxonalar ishlab chiqarayotgan tovar va xizmatlarning yirik korxonalaridan sifati katta farq qilmaydi. Bundan tashqari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining aksariyat qismi bevosita ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanmoqda. Xususan, bu boradagi jarayonlarga yengil va oziq-ovqat, metalga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash va mebel, qurilish materiallari, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoatlari, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish, fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish va boshqalarni namuna sifatida keltirish mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida kichik korxonalar yirik kompaniyalarga nisbatan tez moslashuvchan bo'ladi va ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini muvaffaqiyatli realizatsiya qilish orqali afzal jihatlari namoyon qila oladi. Ayni paytda kichik korxonalar o'z faoliyatlarini tor doiradagi ishlab chiqarish dasturlariga va zamonaviy texnologiyalar talab qiladigan mahsulotlarni tayyorlashga tezkorlik bilan moslashish qobiliyatiga ega hisoblanadi.

Kichik korxonalarining mulkchilik shakllariga binoan qator turlari mavjud bo'lib, ular jumlasiga, davlat mulkiga, jamoa mulkiga, fuqarolarning mulkiga asoslangan yakka tartibda faoliyat yuritadiganlarini, ijara korxonalarini, kichik qo'shma korxonalarni kiritish mumkin. Kichik biznes korxonalari eksportga chiqarayotgan mahsulotlar bu qishloq xo'jalik mahsulotlaridan, to'qimachilik, ishlov beruvchi, elektro-texnika tovarlari va xalq amaliy san'ati buyumlaridan iborat.

Bozor munosabatlarini chuqurlashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida tashkil etilib, ularning milliy bozordagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda tayanch ustunlardan hisoblanadi. Xususan, ular bozor munosabatlari sharoitida talab etiladigan harakatchanlik asosida chuqur ixtisoslashuvni va tarmoqlashgan kooperatsiyani ta'minlash orqali samarani oshirish, bozor uchun erkin raqobat muhitini ta'minlash va o'zgaruvchan talabga muvofiq tarzda tezda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, har qanday tovar taqchilligini bartaraf qilish, zamonaviy mashina uskunalarni va ilg'or texnologiyalarni jadal o'zlashtirish, faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan sarmoyaning o'rnini qisqa muddatlarda qoplash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning afzalliklari muomala kapitalining kichikligi va tez aylanuvchanligida, ishlab chiqarish vositalari va dastgohlarni tezda almashtirish imkoniyatlari mavjudligida namoyon bo'ladi. Natijada ular tomonidan yangi tovarlarni takomillashtirilib o'zlashtirilishiga va talabning tez o'zgarishini inobatga olib kichik hajmlarda ishlab chiqarishga, tezkor texnik servis xizmatining kafolatlanishiga va xaridorlar bilan mustahkam aloqalarning o'rnatilishiga, ishlab chiqarishni moslashuvchan tarzda tashkil etilishiga va yo'naltirilishiga, boshqarishning soddalashtirilishiga va boshqa qulayliklarga zamin yaratadi.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik zamonaviy ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim tashkiliy tuzilmasi va tarkibiy qismi sifatida keng-ko'lamda namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun davlatimiz milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida alohida e'tibor qaratmoqda va muntazam rag'batlantirmoqda. Mamlakatimizda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, sanoatning yetakchi tarmoqlarida ilg'or yangi texnologiyalarga o'tish bosqichida o'z mavqeyini mustahkamlamoqda. Bu zamonaviy axborot texnologiyalarini, yangi g'oyalar va ishlab chiqarishni

modernizatsiya qilish bilan bog'liq yaxlit tizimning muhim qismini tashkil etadi (Tukhliev N., 2020: 311).

Shuningdek, kichik korxonalar risk va xavf - xatar katta bo'lgan vaziyatlarda ishlab chiqarishning eng maqbul va samarali usuli hisoblanadi. Qolaversa, kichik o'lchamli korxonalarda yangi texnologiyalarni tadbiq qilish katta xarajat talab qilmaydi. Chunki yangiliklarni yirik korxonalariga qaraganda kichik biznesda xavf-xatar kam bo'lganligi uchun qo'llash qulay amalga oshadi. Natijada ular fan-texnik taraqqiyoti jadallashuviga zamin yaratadi. Shu bois bozor munosabatlarini chuqurlashtirish orqali infratuzilmalarni takomillashtirish, erkin raqobatni, xizmatlar hajmi va turini kengaytirish, bank, auditorlik, konsalting va turli vositachilik faoliyatlarini rivojlantirish uchun qulay shart - sharoitlar yaratish zarur. Shuningdek, kichik korxonalar boshqarish samaradorligini va iqtisodiy mustaqilligini, ishlab chiqariladigan mahsulotlar turlari va hajmini, eksport qilish imkoniyatlarini oshirish talab etiladi.

Bundan tashqari, qishloq joylarda tadbirkorlikning rivojlantirish ham katta imkoniyatlarni ta'minlab beradi. Shuningdek, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va qayta ishlash sanoatining rivojlanishi faollashadi. Buning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni huquqiy bazasini yanada mustahkamlash, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularning ishlab chiqarishini texnologik jihozlar bilan ta'minlashga ko'maklashish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish va faollashtirish jarayonida yoshlarni o'rnini kengaytirish maqsadida ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish ustuvor masalalardan hisoblanadi. Chunki, yoshlarning ilmiy salohiyati va yuksak saviyasi yangiliklar yaratishda va mamlakatimizda bunyodkorlikni amalga oshirishda muhim asos bo'ladi. Zero, bozor iqtisodiyoti yoshlarga xos bo'lgan ishbilarmonlikni, tavakkalchilikni va harakatchanlik qobiliyatini taqozo qiladi. Mamlakatimizda ko'p ukladli iqtisodiyotning barpo qilinishi va xususiy biznes faoliyatining rivojlanishi har bir shaxsning o'z qobiliyati va iqtidorini namoyon qilishi uchun zamin yaratmoqda.

XULOSA VATAKLIFLAR: Milliy iqtisodiyotning umumiy rivojlanishida, iste'mol bozorida tovar va xizmatlar taqchilligini bartaraf etishda kichik o'lchamli ishlab chiqaruvchilarning roli muhim hisoblanadi. Mamlakatimizda mehnat resursi taklifi izchil o'sayotgani va ishlab chiqarishning rivojlanishidagi o'ziga xoslik kichik korxonalar tizimini barpo qilish orqali qator imkoniyatlarni ta'minlashga sharoit yaratib beradi. Jumladan, mehnat bozoriga yangi kirib kelayotgan ishchilarni band qilish, shaxslarni ishlab chiqarishga keng jalb etish va ularni moddiy, ma'naviy

salohiyatini oshirish, sanoat ishlab chiqarishini aholi zich yashaydigan hududlarda joylashtirish va iste'mol tovarlarini yetarli darajada ta'minlashga asos bo'ladi.

Shuningdek, kichik va o'rta shaharlarni, qishloq aholi punktlarini rivojlantirish, iqtisodiyotda samarani oshirishga va resurslardan unumli foydalanishga erishish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdan foydalanish muhim hisoblanadi. Shu bois kichik korxonalar tizimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishini muntazam chuqurlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, kichik korxonalar moliyaviy qo'llab-quvvatlashni takomillashtirishda ularga xizmat ko'rsatadigan banklar, investitsiya va sug'urta kompaniyalarining faoliyatlarini rag'batlantirish samarali natija beradi.

Zero, iqtisodiyotning barcha darajalarida bo'lgani kabi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ham oldindan ko'rib bo'lmaydigan turli-tuman riskli vaziyatlar faoliyatga katta ta'sir ko'rsatadi. Ularga bozor kon'yunkturasi o'zgarishi, xaridorlarning to'lov qobiliyati pasayishi, turli tabiiy ofatlar va boshqalarni kiritish mumkin. Bunday muammolar jahon amaliyotida sug'urta kompaniyalari rivojlanishi va qo'llab-quvvatlanishi orqali yechim topgan.

Mamlakatimizda ham sug'urta ishini jadallashtirish va kichik korxonalar rivojlantirishda tijorat risklarini qulay sharoitlarni kafolatlashni kuchaytirish katta ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iborat. Natijada iqtisodiyotda erkin raqobat rivojlanadi, iste'mol bozorida tovar va xizmatlarning turi ko'payadi, mamlakatda xususiy tadbirkor va ishbilarmonlarning keng qatlami shakllanadi.

Mamlakatda tadbirkorlarning ko'payishi va ularning ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishi sog'lom raqobatning rivojlanishiga va mahsulotlarning sifat darajasining ortishiga ulkan asos bo'ladi. Natijada mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim va ustuvor vazifasi bo'lmish islohotlarni chuqurlashtirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish asosida o'z imkoniyat va resurslarimiz hisobiga iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlari, samaradorligi va makroiqtisodiy muvozanatning izchilligi ta'minlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni (2017 yil 7 fevral, PF-4947-son): -T.: Adolat, 2018. -112 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 24.01.2020.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.–T.: O'zbekiston, 2017.
4. Tuxliev N. Osiyo taraqqiyot modeli. – T.: “O'zbekiston”, 2015. – 126 b.
5. Tuxliev N., Haqberdiyev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti. Darslik. – T.: “O'zbekiston”, 2018. – 488 b.
6. Sodikov, Z. (2020) Fundamentals of new economic processes. American Journal of Research www.journalofresearch.us 5-6, May-June 2020. https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/07/2020_5_6-AJR_16.pdf. P. 113-118.
7. Sodikov, Z. (2020) Specific factors of national economic development. International journal of research in economics and social sciences (IJRESS). Published by Euro Asia Research and Development Association Website: <http://euroasiapub.org>. ISSN(O): 2249 - 7382| Impact Factor: 6.939| Vol. 10 Issue 7, July – 2020. <http://euroasiapub.org/category/ijress/current-ijress/>. P. 111-118.
8. Gulyamova Gulnora va b. Opportunities for establishment of transborder free economic zones in Central Asia. Journal Of Social Sciences and Humanities, 4 (16). Retrieved from. (2019). R. 754-761
9. Batirova, N. S., & Tohirov, S. (2019). Importance of foreign economic relations in innovative development of the region's industry. In *European research* (pp. 145-149).
10. Batirova, N. S. (2018). Features of the development of the tashkent region in an innovative economy. *European Journal of Humanities and Social Sciences*, (6), 159-162.
11. Batirova, N. (2018). The innovative development of the industry in tashkent region. *The Light of Islam*, 2018(4), 51-57.
12. Batirova, N. (2019). Features of industrial development of the tashkent region. *The Light of Islam*, 2019(4), 40.
13. Batirova, N. Sh. (2018). Features of development of tashkent region in the conditions of innovative economy. in *eurasian economic conference* (pp. 184-187).
14. Batirova, N. (2017). Process of industry and its prospects in the republic of Uzbekistan. *Theoretical & Applied Science*, (8), 12-18.
15. Batirova, N. Sh. (2017). The importance of innovative industry in the development of national economy. *Actual scientific research in the modern world*, (7-1), 63-66.
16. Batirova, N. Sh. (2017). Role of external economic factor in the process of industrialization in developing countries (on the example of Uzbekistan). In *European Scientific Conference* (pp. 56-59).
17. Batirova, N. S. (2019). Theoretical aspects of the innovative development of the region. In *science and education: problems and innovations* (pp. 120-124).
18. Батирова, Н. Ш. (2017). Важность инновационной промышленности в развитии национальной экономики. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (7-1), 63-66.
19. Tukhliev, N., Abdullayev, R., Gulnora, G., Batirova, N., & Uktam, J. (2020). Contemporary Trends in International Economic Integration: Challenges and Prospects. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(2).
20. Batirova, N. (2020). Tendencies of development of high technology industry in Tashkent region. *The Light of Islam*, 2020(2), 193-198.
21. Батирова, Н. Ш., & Бозорова, Ш. И. (2019). Роль промышленности в развитие ташкентского области. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (11-2), 21-26.
22. Батирова, Н. Ш. (2019). Теоретические аспекты инновационного развития региона. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (8-1), 26-32.
23. Батирова, Н. Ш. (2019). Минтақа саноати инновацион ривожланишининг назарий жиҳатлари. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (7).
24. Батирова, Н. Ш., & Гуляев, Г. Ю. (2019). Роль внешне-экономических отношений в инновационном развитии промышленности региона. in *экономика и предпринимательство: актуальные вопросы, тенденции и перспективы развития* (pp. 42-47).
25. Батирова, Н. Ш., & Тўлкинов, Д. Қ. (2019). Инновационное развитие промышленности региона. In *научные исследования высшей школы* (pp. 145-147).
26. Батирова, Н. (2017). Процесс промышленности и его перспективы в республике узбекистан. *Theoretical & Applied Science*, (8), 12-18.
27. Батирова, Н. Ш. (2018). Особенности развития ташкентской области в условиях инновационной экономики. In *евразийская экономическая конференция* (pp. 184-187).
28. Батирова, Н. Ш. (2017). Роль внешне экономического фактора в процессе индустриализации в развивающихся странах (на примере Узбекистана). In *Europe an Scientific Conference* (pp. 56-59).
29. Абдуллаев, Р. В., & Ботирова, Н. Ш. (2016). Ўзбекистон Республикасида саноатлаштириш жараёни ва унинг истикболлари. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (9).
30. Abdirashidov A. Hududiy iste'mol tovarlari bozorining shakllanishi va rivojlanishi. *Iqtisod va moliya 2019/8 soni*. 40-45 b.
31. Xudoyarov, A. (2020). Aspects and possibilities of using the cluster approach in developing the effectiveness of ziyorah tourism. *The Light of Islam*, 2020(1), 202-209.
32. Xudoyarov, A. A. (2020). Trends in the development of traditional and visiting tourism in the world markets. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(2), 265-270.
33. Xudoyarov PhD, A. (2019). Specific organizational and economic aspects of the development of pilgrimage tourism in uzbekistan. *The Light of Islam*, 2019(4), 39.
34. www.wto.org.
35. [www. Stat.uz](http://www.stat.uz).
36. www.cbu.uz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni (2017 yil 7 fevral, PF-4947-son): –T.: Adolat, 2018. –112 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 24.01.2020.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.–T.: O'zbekiston, 2017.
4. Tuxliev N. Osiyo taraqqiyot modeli. – T.: "O'zbekiston", 2015. – 126 b.
5. Tuxliev N., Haqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti. Darslik. – T.: "O'zbekiston", 2018. – 488 b.
6. Sodikov, Z. (2020) Fundamentals of new economic processes. American Journal of Research www.journalofresearch.us 5-6, May-June 2020. https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/07/2020_5_6-AJR_16.pdf. P. 113-118.
7. Sodikov, Z. (2020) Specific factors of national economic development. International journal of research in economics and social sciences (IJRESS). Published by Euro Asia Research and Development Association Website: <http://euroasiapub.org>. ISSN(O): 2249 - 7382| Impact Factor: 6.939| Vol. 10 Issue 7, July – 2020. <http://euroasiapub.org/category/ijress/current-ijress/>. P. 111-118.
8. Gulyamova Gulnora va b. Opportunities for establishment of transborder free economic zones in Central Asia. Journal Of Social Sciences and Humanities, 4 (16). Retrieved from. (2019). R. 754-761
9. Batirova, N. S., &Tohirov, S. (2019). Importance of foreign economic relations in innovative development of the region's industry. In *European research* (pp. 145-149).
10. Batirova, N. S. (2018). Features of the development of the tashkent region in an innovative economy. *European Journal of Humanities and Social Sciences*, (6), 159-162.
11. Batirova, N. (2018). The innovative development of the industry in tashkent region. *TheLight of Islam*, 2018(4), 51-57.
12. Batirova, N. (2019). Features of industrial development of the tashkent region. *The Light of Islam*, 2019(4), 40.
13. Batirova, N. Sh. (2018). Features of development of tashkent region in the conditions of innovative economy. in *eurasian economic conference* (pp. 184-187).
14. Batirova, N. (2017). Process of industry and its prospects in the republic of Uzbekistan. *Theoretical & Applied Science*, (8), 12-18.
15. Batirova, N. Sh. (2017). The importance of innovative industry in the development of national economy. *Actual scientific research in the modern world*, (7-1), 63-66.
16. Batirova, N. Sh. (2017). Role of external economic factor in the process of industrialization in developing countries (on the example of Uzbekistan). In *European Scientific Conference* (pp. 56-59).
17. Batirova, N. S. (2019). Theoretical aspects of the innovative development of the region. In *science and education: problems and innovations* (pp. 120-124).
18. Batirova, N. Sh. (2017). Vazhnost' innovatsionnoy promyshlennosti v razvitii natsional'noy ekonomiki. *Aktual'nye nauchnye issledovaniya v sovremennom mire*, (7-1), 63-66.
19. Tukhliev, N., Abdullayev, R., Gulnora, G., Batirova, N., &Uktam, J. (2020). Contemporary Trends in International Economic Integration: Challenges and Prospects. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(2).
20. Batirova, N. (2020). Tendencies of development of high technology industry in Tashkent region. *TheLightofIslam*, 2020(2), 193-198.
21. Batirova, N. Sh., &Bozorova, Sh. I. (2019). Rol' promyshlennosti v razvitie tashkent'skogo oblasti. *Aktual'nye nauchnye issledovaniya v sovremennom mire*, (11-2), 21-26.
22. Batirova, N. Sh. (2019). Teoreticheskie aspekty innovatsionnogo razvitiya regiona. *Aktual'nye nauchnye issledovaniya v sovremennom mire*, (8-1), 26-32.
23. Batirova, N. Sh. (2019). Mintaqa sanoati innovatsion rivozhlanishining nazariy zhixatlari. *Ekonomika i finansi (Uzbekistan)*, (7).
24. Batirova, N. Sh., & Gulyaev, G. Yu. (2019). Rol' vneshneekonomicheskikh otnosheniy v innovatsionnom razvitii promyshlennosti regiona. in *ekonomika i predprinimatel'stvo: aktual'nye voprosy, tendentsii i perspektivy razvitiya* (pp. 42-47).
25. Batirova, N. Sh., &Tylkinov, D. K. (2019). Innovatsionnoe razvitie promyshlennosti regiona. In *nauchnye issledovaniya vysshey shkoly* (pp. 145-147).
26. Batirova, N. (2017). Protsess promyshlennosti i ego perspektivy v respublike uzbekistan. *Theoretical & Applied Science*, (8), 12-18.
27. Batirova, N. Sh. (2018). Osobennosti razvitiya tashkent'skoy oblasti v usloviyakh innovatsionnoy ekonomiki. In *evraziyskaya ekonomicheskaya konferentsiya* (pp. 184-187).
28. Batirova, N. Sh. (2017). Rol' vneshne ekonomicheskogo faktora v protsesse industrializatsii v razvivayushchikhsya stranakh (na primere Uzbekistana). In *European Scientific Conference* (pp. 56-59).
29. Abdullaev, R. V., &Batirova, N. Sh. (2016). Uzbekiston Respublikasida sanoatlashtirish zharaeni va uning istiqbollari. *Ekonomika i finansi (Uzbekistan)*, (9).
30. Abdirashidov A. Hududiy iste'mol tovarlari bozorining shakllanishi va rivojlanishi. *Iqtisod va moliya 2019/8 soni*. 40-45 b.
31. Xudoyarov, A. (2020). Aspects and possibilities of using the cluster approach in developing the effectiveness of ziyarah tourism. *The Light of Islam*, 2020(1), 202-209.
32. Xudoyarov, A. A. (2020). Trends in the development of traditional and visiting tourism in the world markets. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(2), 265-270.
33. Xudoyarov PhD, A. (2019). Specific organizational and economic aspects of the development of pilgrimage tourism in uzbekistan. *The Light of Islam*, 2019(4), 39.
34. www.wto.org.
35. www.Stat.uz.
36. www.cbu.uz.